

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TALIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

7.	Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024-yil " 29 " 08 1-sonidagi qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun ma'sul: A.U. Muydinova – Chirchiq davlat pedagogika universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o'quvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
9.	Taqrizchilar: O.U. Pardayev – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek adabiyoti tarixi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc). A.R. Davlatova – Chirchiq davlat pedagogika universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc).



MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK ADABIYOTI
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi: 110000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi: 60110700 – O'zbek tili va adabiyoti

Fan/modul kodi	MDO/A1804	O'quv yili	2027-2028	Semestr	8	ECTS - Kreditarlar	4
Fan/modul turi	Majburiy	Ta'lim tili		O'zbek		Haftadagi dars soatlari	4
Fanning nomi		Auditoriya	mashg'ulotlari	Mustaqil	ta'lim (soat)	Jami yuklama	(soat)
Mustaqillik davri		o'zbek		60	60	120	
adabiyoti							

2. 1. Fanning mazmuni.

Fanni o'qitishdan maqsad – mustaqillik davri o'zbek adabiyotining nazariy masalalarining muhim poetik-estetik qirralarini mujassam qilgan adabiy asarlarni o'rganish orqali badiiy falsafiy qarashlardagi nazariy-badiiy evolyutsiyani ko'rsatib berish.

Fanning vazifasi – talabalarining adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish, ilmiy mushohadaning vujudga kelishi hamda nazariy jihatdan tahlil qilish va talqin ko'nikmalarini hosil qilish, faol ijodkorlik ruhi va mas'uliyatini shakllantirishdan iborat.

II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1- mavzu. Mustaqillik davri she'riyatining taraqqiyot tamoyillari.

Istiqol davri o'zbek she'riyatining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish. Istiqol davri o'zbek she'riyatiga xos tasvir uslublari, mazkur davr she'riyatiga xos yetakchi tendensiyalar, taraqqiyot tamoyillari, she'riyatda poetik fikrning yangilanishi, g'oyaviy-badiiy mezon va estetik qarashning tug'ilibishi.

2- mavzu. Bugungi o'zbek she'riyatining o'ziga xos tamoyillari.

Bugungi kun she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari, islom asoslari va g'oyalar bilan sug'orilgan she'riyat, she'riyatda milliy g'oya va milliy markaning ifodasi, bugungi kun she'riyatida poetik obraz va motivlar, M.Yusuf va boshqalarning istiqol davrida yaratilgan she'rari tahlili. Modern va modern yo'nalishdagi she'riyat. Modern she'riyatning xususiyatlari.

3- mavzu. Mustaqillik davri o'zbek dostonlari poetik tafakkurining o'ziga xosligi.

Istiqol davri o'zbek dostonchiligiga xos yangilanish, monolog tipidagi lirik poemalar, liro-epik va dramatik turdagi dostonlar, istiqol davri o'zbek dostonlarining mavzu va g'oya gamrovi, dostonlarning poetik tafakkuri.

4- mavzu. Hozirgi o'zbek poemalari(doston)ning tabiati.

Lirik dostonlarda ruhiyat olamining tasviri. Liro-epik dostonlarda hayot falsafasi va mantiqiy tafakkur sintezi, liro-epik dostonlarning xususiyati. "Yoziq", "Ayolig'u" dostonlarining falsafiy haqiqat va hayotiy mantiqqa ega. Ch.Ergashning "Ratnoning savdosi", I.Otamurodning "Ichkari tashkari", A.Qutbiddinning "Izohsiz lug'at" dostonlarining tahlili.

5- mavzu. Mustaqillik davri o'zbek hikoyachiligining badiiy va uslubiy o'ziga xos xususiyatlari.

Mustaqillik davri o'zbek hikoyachiligining janr va uslub xususiyatlari, hikoyachilik taraqqiyotining yetakchi tendensiyalari, hayotning mohiyatini, insonning hayotdagi o'rni, yashashdan maqsad kabi masalalar mohiyatini ochib beruvchi hikoyalar, ma'naviy-axloqiy masalalar insonning ruhiy dunyosi orqali ochib berilgan hikoyalar, inson qadr-qimmatini masalasi yaratilgan, totalitar jamiyat illatlari fosh qilingan, mutetlik psixologiyasining tub mohiyati inkishof etilgan psixologik hikoyalar, tarixiy voqealik to'g'ri yoritilgan, tarixiy shaxslar faoliyatiga to'g'ri pozitsiyada bo'lgan tarixiy mavzudagi hikoyalar.

6- mavzu. Bugungi o'zbek hikoyachiligi: ularning o'ziga xos yo'nalishlari.

O'zbek hikoyachiligida yangilanish, bugungi o'zbek hikoyalarda milliylik ifodasi, hikoyalarda xarakter va g'oya, modern tamoyildagi hikoyalar, N.Norgobilov, S.Ahmad, H.Do'stmuhammedov, Sh.Bo'tayev hikoyalarning tahlili. 90-yillar hikoyachiligidagi yangi tamoyillar.

7- mavzu. Mustaqillik davri o'zbek qissalariga xos qahramon yaratish tamoyillari.

Mustaqillik davri qissachilik taraqqiyotining yetakchi tendensiyalari, ijtimoiy muammolar va milliy qadriyatlar aks etgan qissalar, mutetlik ruhiyatining salbiy oqibatlari ochib berilgan qissalar, milliy-ozodlik kurashchilari faoliyati va obrazlari yangicha tahlil qilingan qissalar, ma'naviy-axloqiy muammolar va inson illatlarining kelib chiqish asoslari teran tahlil qilingan qissalar.

8- mavzu. Hozirgi o'zbek qissachiligi.

Hozirgi o'zbek qissachiligida ijtimoiy muammolar va milliy qadriyatlar aks etgan qissalar, tarixiy voqealik va tarixiy shaxslar faoliyati yoritilgan qissalar, ma'naviy axloqiy masalalar insonning ruhiy dunyosi orqali yoritilgan asarlar, modernistik yo'nalishdagi qissalarining o'ziga xos xususiyatlari. Hozirgi o'zbek qissachiligining mavzu doirasining kengayishi. E.A.Zamov qissalarida ijtimoiy-va insoniy illatlar ifodasi. "Shoimning to'yi", "Timsohning ko'z yoshlari" va qissalarining g'oyasi, yomonlik ildizining badiiy ifodasi, fosqilik va

munxatlikning ildizi. Detektiv qissalarining o'ziga xos xususiyati va ularda xarakter yaratishning o'ziga xos jihati. Alisher Ibodinovning "Latofat do'konidagi qotillik" to'plamiga kirgan qissalari tahlili.

9-mavzu. Mustaqillik davri o'zbek romanlarining badiiy talqini.

Mustaqillik davri o'zbek romanlarining janr va uslub xususiyatlari, romanchilik taraqqiyotining yetakchi tendensiyalari, romanning jamiyat ma'naviy taraqqiyotida, inson kamolotida tutgan o'rni, tarixiy va ijtimoiy voqelik o'zining haqiqiy ifodasini topgan romanlar, totalitar tuzum illatlari tub mohiyati ochib berilgan romanlar. U.Hamdani "Muvozanat", "Isyon va itoat", "Sabo va Samandar" romanlarining tahlili.

10-mavzu. Bugungi o'zbek romanida davr, tarix, zamon masalalari.

Bugungi o'zbek romanchiligida tarixiy shaxs, tarixiy va ijtimoiy voqelik o'zining haqiqiy ifodasini topgan romanlar, roman janridagi izlanishlar: modernistik yo'nalishdagi romanlar, O'zbek romanlarida davr, tarix, zamon masalasi. Turkiy qavmdagilarning do'st-birodar bo'lishning tub asoslari. "Amir Temur" romanida milliy qadriyatlar o'z ifodasini topishi. "Ulug' saltanat" romanida Temurning insoniyligi. Roman janridagi izlanishlar. Modernistik yo'nalishdagi romanlarning yuzaga kelishi.

11-mavzu. Bugungi o'zbek dramaturgiyasi. Kechagi kun dramaturgiyasidan bugunning farqi.

Tarixiy voqelikni yoritishda dramaturg mahorati. Shaxs qismati dramasi tarixiy shaxslar misolida talqin qilinishi. Komediyalarda shaxs fojiasi ifodasi. Bugungi kun o'zbek dramaturgiyasida tarixiy voqelik va shaxslar obrazini yoritishga e'tibor kuchayganligining ijtimoiy asoslarini ochib berish. A.Oripovning "Sohibqiron", O. Yoqubovning "Fotih muzaffar yohud bir parivash siri" dramalarining tahlili. O.Yoqubovning "Bir koshona sirlari", U.Nazarovning "Oyna" dramalari tahlili.

12-mavzu. Istiqlol davri o'zbek fantastikasi tarixi va uning o'ziga xosligi.

Mustaqillik davri o'zbek fantastikasining tarixi, fantastikaning turlari, istiqlo davri o'zbek adabiyotida fantastik hikoyachilik sohasidagi izlanishlar, fantastik qissalarda ijtimoiy hayot bilan bog'liq holda genetik masalalar xususida fikr yuritilishi, fantastika va siyosat, istiqlo davri o'zbek fantastikasida g'oyaviy-badiiy izlanishlar.

13-mavzu. Mustaqillik davri o'zbek adabiy tanqidchiligi.

Mustaqillik davri o'zbek adabiy tanqidchiligining yetakchi muammolari, adabiy tanqidchilikda mahorat masalasi talqini. She'riyatning nazariy masalalari va shoir mahoratini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar. O'zbek dramaturgiyasi tarixi va buguni xususidagi tadqiqotlar.

14-mavzu. Mustaqillik davri o'zbek publitsistikasi.

Mustaqillik davri jamiyat ma'naviy taraqqiyotida publitsistikaning o'rni, istiqlo davri o'zbek publitsistikasida yoritilayotgan ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy muammolar.

15-mavzu. Mustaqillik davri o'zbek bolalar adabiyoti.

Bolalar adabiyoti va uning taraqqiyoti. Bolalar adabiyotida xarakter, konflikt va ruhiy kechinma. Bolalar adabiyotida Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyev kabi ijodkorlarning o'rni Bolalar adabiyoti haqida mulohaza va bahslar xususida. Bolalar adabiyotidagi muammolar, tahlil, talqin masalasiga doir qarashlar. Bolalik saltanati va ilmiy texnik taraqqiyot muammolari. Mustaqillik davri bolalar adabiyoti.

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Mustaqillik davri ko'ngil she'riyati tahlili.
2. Lirik dostonlarda ruhiyat olamining tasviri. Liro-epik dostonlarda hayot falsafasi va mantiqiy tafakkur sintezi.
3. 90-yillar hikoyachiligidagi yangi tamoyillar.
4. Bugungi o'zbek hikoyachiligida badiiy yangilanish va yangi tamoyillari.
5. Qissachilik yo'nalishlari.
6. Romanlarda davr, muhit va inson fojiasining ramziy talqinlari.
7. Tog'ay Murod va O'tkir Hoshimov romanlarida ma'naviy axloqiy masalalar
8. Sh.Xolmirzayevning "Dinazavr" va "Olabo'ji" romanlarida ijtimoiy davr va shaxs masalasi.
9. Bugungi o'zbek romanlarida tasvir haqqoniyligi va g'oyaviy-falsafiy teranlik.
10. Omon Muxtor romanlarida yangicha talqinlar.
11. Romanlarda davr, muhit va inson fojiasining badiiy ifodasi.
- X. Do'stmuhammadning "Bozor" romani tahlili.
12. Isajon Sultonning "Boqiy darbadar", "Ozod" kabi romanlari tahlili.
13. Xurshid Davron asarlarida tarixiy voqelik va badiiy to'qima.
14. Dramaturgiyada qahramon ichki dunyosining ifodasida ijodkor uslubi.
15. Tanqidchilikdagi yangicha qarashlar.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

